

PUL-KREDIT SIYOSATINI BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI TATQIQ QILISH

Kaxorova Anora Nusratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti "Fundamental iqtisodiyot" kafedrasasi assistenti

Annotatsiya: 2021 yil va 2022 yilning o'tgan 9 oyida O'zbekistonda pul-kredit siyosati va tarkibiy iqtisodiy islohotlar borasida ko'rilgan chora-tadbirlar iqtisodiy faollikni va yalpi talabni rag'batlantirish zaruratini ko'rsatmoqda. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan konsepsiyaga asosan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Kalit so'zlar: Pul-kredit siyosati, iqtisodiy o'sish, valyuta kursi, inflyatsiya, inflyatsion target, monetary target, yalpi ichki mahsulot.

KIRISH

2022 yilda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish ya'ni, YAIM o'sishi sekinlashib, 5,77% ni tashkil etishi kutilmoqda. O'sish sur'atining sekinlashishi mamlakatda xususiy iste'molning qisqarishi va natijada sanoat hamda xizmatlar sohasi kengayishining cheklanishi bilan izohlanmoqda. Bank mamlakatga «yashil o'sish» va xususiy sektorning rivojlanishi yordam berishi OTB prognozlariga ko'ra mumkinligini ta'kidlanmoqda.

Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi. Bunda inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak. Pul-kredit siyosati mamlakat yalpi ichki mahsulotining barqaror o'sishini ta'minlashda, milliy bank tizimidagi likvidlilik muammosini hal qilishda va inflatsiyani jilovlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, dunyoning ko'plab mamlakatlarida moliyaviy inqiroz davom etayotgan hozirgi sharoitda pul-kredit siyosatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda eng avvalo, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflatsiya darajasini oshishiga yo'l qoymaslik hisoblanadi. Milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining baland ekanligi importning qimmatlanishiga olib kelishi mumkin va bu natijada investitsiya me'yorini pasayishida yuz berishi mumkin. O'z navbatida, investitsiya me'yorining pasayishi yuz berishi mumkin. Investitsiya me'yorining pasayishi yalpi ichki mahsulotning o'sish suratini pasayishiga va ayrim hollarda iqtisodiyotni retsessiya holatiga tushib qolishiga olib keladi. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida Markaziy bankning (Abdullayev.O'.2018)

pul-kredit siyosati samaradorligi yanada oshirish mamlakatdagi pul bozorining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Buning asosiy sababi, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari, qayta moliyalashtirish siyosati, hamda valyuta intervensiyasi mos ravishda bevosita pul bozorining tarkibi hisoblangan qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari bozori bilan banklararo kreditlar bozori hamda valyuta bozorida amalga oshirilib boriladi.

Aytish lozimki, Respublikamiz joriy valyuta bozorining likvidlilikni ta'minlashda Markaziy bankning monetar siyosati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda joriy yilning 9 oyida YaIMning real o'sishi 6,9% ni tashkil etdi. Qaydlarga ko'ra, 2022-yilda YaIM hajmi qariyb 840 trillion so'mni (74,2 milliard dollar) bo'lishi rejalashtirilgandi. Aholi jon boshiga YaIM 23,8 million so'm (2,1 ming dollar) hajmida shakllanishi nazarda tutilgan. 2022-yilda YaIM tarkibida qo'shilgan qiymat 92,6 foiz hamda mahsulotlar va eksport-import operatsiyalari hisobidan olingan sof soliqlar tushumi 7,4 foiz tashkil etdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini takomillashtirish, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Monetar siyosatning makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati, avvalo, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflyatsiya darajasining oshishiga yo'l qo'ymaslikda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Pul-kredit siyosati" atamasi odatda davlatning Markaziy banki yoki Markaziy bankga mos keladigan funksiyalarni bajaradigan tuzilma faoliyati doirasida ko'rib chiqiladi. (Rudko-Silivanov, N.Kuchina, M. Jevlakova2003) hammuallifligida chop etilgan "Markaziy bank faoliyatini tashkil qilish" mavzusidagi o'quv qo'llanmada monetar siyosatning quyidagi strategik maqsadlarining mavjudligi e'tirof etiladi:

- baholar barqarorligini ta'minlash orqali;
- to'liq bandlikka erishish orqali;
- ishlab chiqarish real hajmining o'sishini ta'minlash orqali;
- Moiseev (2011) fikriga ko'ra monetar siyosatning ushbu asosiy to'rtta strategik maqsadlari mavjud ekan:
 - baholar barqarorligi asosida;
 - milliy valyutaning barqarorligi asosida;
 - mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash asosida;
 - muvozanatlashgan iqtisodiy o'sish asosida.

AQShlik, yaponiyalik va yevropalik iqtisodchi olimlar tomonidan nashr etilgan darsliklar, chop etilgan ilmiy maqolalarda "monetar siyosat" (monetary policy) tushunchasidan foydalaniladi. Masalan, taniqli iqtisodchi olim, AQSh FZT Prezidenti

Bemanke (2003) o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida va ilmiy maqolalarida faqat "monetar siyosat" tushunchasidan foydalangan Miller va D.Van-Xuzning(2009) fikriga ko'ra, monetar siyosatning quyidagi ikki strategik maqsadini aytib o'tdi:

- tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash;
- inflyatsiyaning past va barqaror darajada bo'lishiga erishish.

Yana bir guruh iqtisodchi olimlar e'tirof etadilarki, Markaziy bankning monetar siyosat yordamida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori va barqaror darajasini ta'minlashi ishsizlik darajasini pasaytirish imkonini berib, bu esa, Hukumat iqtisodiy siyosatining strategik maqsadlaridan biri bo'lgan ishsizlikning past va barqaror darjasini ta'minlash maqsadiga mos keladi.

METODOLOGIYA

Maqolada tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va ilmiy abstraktsiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

NATIJARLAR VA TAHLIL

2022-yil davomida 1-1,5 foizgacha kengayib, iqtisodiy o'sish o'zining potensial darajasidan past bo'ladi. 2023-yildan boshlab YaIM tafovutining qisqarishi kuzatiladi va uning yopilishi (iqtisodiy o'sishning potensial darajasida bolishi) iqtisodiy va investitsion faollikning tiklanish darajasiga bog'liq bo'ladi. YAImning 2020-yil yakunlari bo'yicha real o'sishi 1-1,5 foizni, 2021-yilda 4,5-5,5 foizni tashkil etishi, shuningdek 2022-2023 yillarda 5-6,5 foizgacha tezlashishi prognoz qilinmoqda. 2021-2022 yillarda iqtisodiy o'sish va investitsion faollikni qo'llab-quvvatlashning zaruriy shartlaridan biri mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hajmlarining oshishi hisoblanadi. Bunda 2020-yilda iqtisodiyotni fiskal qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan choralar va pul-kredit siyosatining nisbatan yumshatilishi ta'sirlari 2021-yilda ham iqtisodiy faollikni va yalpi iste'mol talabini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan bo'lib qoladi. Umumiy fiskal defitsiti esa 2020 yildagi YAImga nisbatan 7-7,3 foizdan 2021 yilda 4-4,5 foizga qisqarishi, 2022-2023 yillarda 2-3 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. 2023-yildan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun fiskal konsolidatsiya boshlanadi va fiskal taqchillikni YAImga nisbatan 2023-yilda 3-4 foiz, 2024-yilda esa, 2,0-2,5 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda.

1-jadval

O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiyotining tiklanishi va iqtisodiy o'sish


Davlatlar	Pandemiyadan oldin YaIM o'sish darajasi(2019 yil)	2020	2021	Pandemiyagacha bo'lgan real YaIM o'sish darajasiga qaytishi(prognoz)	Emlangan aholi ulushi
Qozog	4,5%	-2,6%	3,2%	4,8%(2023yil)	26%

'iston					
Xitoy	6,0%	2,3%	8,5%	8,5%(2021yil)	43%
Rossiya	2,0%	-3,0%	3,2%	3,2%(2021yil)	23%
Turkiya	0,9%	1,8%	5,0%	1,8%(2020yil)	46%

Manba: Jahon iqtisodiy istiqbollari. Jahon banki. Iyun, 2021yil. [https://www. enc.for.uz](https://www.enc.for.uz)

Jahon bankining iyun oyida yangilangan ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda global iqtisodiyotning o'sish vositalari - bu Xitoy tomonidan kechikkan talabning yuzaga chiqishi va AQSh iqtisodiyotiga katta miqdordagi moliyaviy rag'batlanishlar bo'yicha umumiy talabning tiklanishi bo'ladi. Eng yuqori o'sib borayotgan Xitoy iqtisodiyotida qayd etilishi kutilyapti – 8,5%(1-jadval). Jahon iqtisodiyotida (Pul-kredit sharhi 2021) 2020-yilda koronavirus pandemiyasi va qat'iy karantin cheklovlari kiritilishi ta'sirida yuzaga kelgan global iqtisodiy inqiroz sharoida iqtisodiy faollikning keskin pasayishi, transchegaraviy aloqalarning cheklanishi va ta'minot zanjiridagi uzilishlar pul-kredit va soliq -byudjet siyosatlarining sezilarli darajada yumshatilishi kuzatildi. 2021-yilda esa, pandemiya bilan bog'liq vaziyatning nisbatan yaxshilanishi, karantin choralarining yumshatilishi, iqtisodiyot subyektlarining pandemiyaga moslashuv darajasining ortishi hisobiga iqtisodiy faollikning sezilarli darajada ortishiga xizmat qildi.

Pul-kredit siyosatini takomillashtirish asosida iqtisodiy o'sishga erishish orqali Mamlakatimizda iqtisodiy faollikning yuqori tezliklar bilan tiklanishi natijasida 2022 yilning birinchi yarmida YaIM tafovutining to'liq yopilishi va 2023 yilda iqtisodiyot o'zining potensial darajasiga yetilishi prognoz qilinmoqda iqtisodiy o'sish darajasi 2022 yilda 5,5-6,5 foiz, 2023-2024 yillarda ham 6 foiz atrofida nazorati prognoz qilinmoqda. Asosiy ssenariy asosida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning asosi sifatda xususiy ichki va tashqi investitsiyalar va iqtisodiyot tarmoqlarida amalda oshiriladigan tarkibiy islohotlar qaralmoqda. Bunda, xususiylashtirish jarayonining izchil davom ettirilishi, davlat ulushi mavjud korxonalar va banklar transformatsiyasining yakuniga yetqazilishi, shuningdek, qishloq xo'jaligidagi islohotlar va iqtisodiyot tarmoqlarida unumdorlikni oshirish amalga oshirilmoqda. O'rta muddatli istiqbolda inflyatsion targetlashga o'tish Markaziy bankning tahliliy va prognozlash salohiyatini mustahkamlashni hamda bosqichma-bosqich takomillashtirib borishni talab etmoqda. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasini ishlab chiqish va uning instrumentlaridan samarali foydalanish vazifasi ko'p jihatdan Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan tahlil va prognozlar sifatiga bog'liq.



1-rasm. YaIM va uning komponentlar real o'sishi(o'tgan yilning mos davriga nisbatan , kumulyativ foizda)

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari,35-bet.

Joriy yilda qat'iy karantin chora-tadbirlarining kiritilmaganligi, vaksinatsiya jarayonlarining tezlashtirilishi aholi va biznes subyektlarining pandemiyaga moslashgan holda o'z faoliyatlarini to'liq davom ettirishi natijasida xizmatlar sohasida 9foizni, qurilish sohasida 4,5 foizni va qishloq xo'jaligi sohasida4,2 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda 2022-yilda yalpi ichki mahsulot 840 trillion so'mni (74,2 milliard dollar) tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. Bu haqda 2022-yil uchun davlat budjeti yuzasidan Hisob palatasi xulosasida ma'lum qilindi. Prognoz qilinayotgan yalpi ichki mahsulot miqdorining tarkibida qo'shilgan qiymat miqdori 778 trillion 153 milliard 600 million so'mni (YaIMning 92,6 foizi) va mahsulotlar va eksport-import operatsiyalari hisobidan olingan sof soliqlar tushumi 61 trillion 865 milliard 900 million so'mni (7,4 foiz) tashkil etmoqda.

XULOSA

Pandemiya davrida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda monetar va fiskal siyosat asosiy o'rin tutadi. Ayni paytda Markaziy bank tomonidan bank tizimida amalga oshirilgan quyidagi chora-tadbirlar ham iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi:

✓ Aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun kredit to'lovlari muddatining uzaytirib berilishi. Karantin choralari joriy etilgan dastlabki kunlardan Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga aholi va tadbirkorlik subyektlarining kredit to'lovlari muddatini uzaytirib berish va shu orqali karantin davrida aholi va biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar berildi.

✓ Iqtisodiyotda inflyatsiyani pasaytirish va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash maqsadlarior'tasidagi muvozanatni ta'minlash vazifalaridan kelib chiqib, markaziy bank asosiy stavkani pasaytirib bordi.

✓ Masofaviy bank xizmatlari yanada rivojlantirildi va kengaytirildi.

✓ O'zbekistonda hukumat tomonidan ko'rilgan choralar makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga YalMning barqaror o'sish sur'atlari ta'minlashga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.A. Mamatov-2021. "Iqtisodiy o'sish" Toshkent, "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi" 45-47-b
2. Mahmudov N.M, Hakimov H. A -2019. "Makroiqtisodiy Tahlil". Toshkent, TDIU nashriyoti.
3. Моисеев С.Р.(2011) Денежно-кредитная политика: теория и практика: Учебное пособие. М.: Московская финансово-промышленная академия.с23
4. Виноградов Д.В., Дорошенко М-Е.(2009) Финансово-денежная экономика: Учебное пособие. М.: ГУ ВШЭ, С. 360.
5. Abdullayev O'(2018) Monetar siyosat, o'quv-uslubiy majmua, Toshkent-Moliya. 25-45b
6. Boboqulov T.I, (2018)U.A. Abdullayev Monetar siyosat. T. "Iqtisod-Moliya"b1
7. Yaxshieva M. T.(Toshkent-2021.) "Monetar nazariya va siyosat"60b
8. Rashidov O, I.I.Alimov (Toshkent-2011) "Pul-Kredit va Banklar" T"Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi31-46b
9. Yadgarova M, Ahmedova D(Toshkent-2017)"Pul va Banklar" Moliya.87b
10. Shomurodov R.T(2015)Monetar siyosat, Ma'ruzalar matni.T,TMI, 151b
11. Rashidov O, Tojiyev R(2010)Markaziy bankning monetary siyosati.TDIU nashriyoti, 284-b
12. Thomas M, James S(2003)Money,Banking and the Economy,Norton company,New York,London.485-p
13. Pul-kredit siyosati sharhi(2021-yil 2-chorak)Markaziy Bank.Toshkent.56-67b
14. Pul-kredit siyosati sharhi.(2021-yil 4-chorak.)Markaziy Bank.Toshkent.45-46b
15. Banklararo pul bozori sharhi.(2021-yil), Markaziy Bank.Toshkent.1-7b
16. Pul-kredit siyosatining (2021)2022-yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, Markaziy bank. Toshkent.
17. Markaziy bank byulleteni. (2021-yil.)Markaziy Bank.Toshkent.
18. <http://www.cbu.uz>-O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti.
19. <http://www.stat.uz>- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti.
20. <http://www.lex.uz>- O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy veb-sayti.
21. <http://www.imf.org>- Xalqaro Valyuta Fondi rasmiy veb-sayti.
22. <http://www.enc.for.uz>-Jahon banki rasmiy sayti.